



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



Ta'limni rivojlantirish
respublika ilmiy-metodik
markazi

**“TRENING KONSTRUKTORI”
ta’lim tashkilotlari psixologlari
uchun treninglar to‘plami**

Toshkent-2025

Ushbu treninglar to'plami ta'lim muassasalarida faoliyat yurituvchi psixologlar uchun mo'ljallangan. Unda psixologlarning salohiyatini rivojlantirish va ta'lim muassasalaridagi psixologik xizmatlar faoliyatini takomillashtirishga ko'maklashuvchi trening dasturlari, mashqlar, usul va metodlar jamlangan.

Tuzuvchi:

Zaripova Y.V. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, psixolog

Taqrizchilar:

N.Tadjibayeva Toshkent shahar Mirobod tumani 34-EDMTT psixologi

Z.B.Sangirova PhD, Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi.

F.Inagamova Renessans ta'lim universiteti psixologi

G.K.Alimova Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi.

“Trening konstruktori” ta'lim tashkilotlari psixologlari uchun treninglar to'plami Ta'limni rivojlantirish Respublika ilmiy-metodik markazi huzuridagi o'quv-metodik kengash tomonidan tavsiya etilgan (2025-yil 4 sentyabrdagi № 2-sonli bayon).

KIRISH

Zamonaviy ta'lim makonida psixologik trening shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish, shaxslararo munosabatlarni uyg'unlashtirish va emotsional so'nishning oldini olishda samarali vosita sifatida alohida o'rin tutadi. Maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlari (MTT) sharoitida trening bir vaqtning o'zida bir necha vazifani bajaradi: ta'limiy, rivojlantiruvchi, profilaktik va korreksion-rivojlantiruvchi.

Pedagoglar, ota-onalar yoki bolalar guruhlari bilan ishlaydigan psixolog har bir auditoriyaning o'ziga xos jihatlarini, guruh dinamikasi va ishtirokchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olishi lozim. An'anaviy ma'ruza shakli va individual maslahatdan farqli o'laroq, trening ishtirokchilarni mashqlar, munozaralar, rolli o'yinlar va refleksiya orqali jarayonga faol jalb etishni nazarda tutadi.

Treningning vazifalari

Ta'lim muhitida trening tashkil etishda psixolog uning asosiy maqsadlarini aniq belgilashi muhim.

Pedagoglar uchun

Pedagoglar — yuqori bilimga ega va ko'pincha emotsional hamda jismoniy zo'riqishni his etadigan mutaxassislar. Ular uchun trening kasbiy so'nishning oldini olish, emotsional o'z-o'zini boshqarish va bolalar hamda hamkasblar bilan samarali muloqotni rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Bu yo'nalishdagi trening quyidagi vazifalarni hal qiladi:

- shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish;
- stressga chidamlilik va o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini mustahkamlash;
- emotsional intellekt darajasini oshirish;
- emotsional so'nishning oldini olish;
- kasbiy o'ziga xoslik va pedagogik jamoaning birdamligini mustahkamlash.

Auditoriyaning o'ziga xos xususiyatlari:

- Yuqori darajadagi kasbiy refleksiya — pedagoglar taklif etilayotgan usullarni tahlil qilishga moyil va ko‘pincha ularning ilmiy asosini talab qiladilar.

- O‘yinli metodlarga nisbatan shubha — mashqlarning amaliy ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslab berish muhim.

- Vaqt tanqisligi va charchoq — trening dinamik va aniq tuzilgan bosqichlarga ega bo‘lishi zarur.

- Jamoaviy dinamika — pedagoglar birga ishlashi natijasida ham resurs (hamkasblar qo‘llab-quvvatlashi), hamda keskinlik (taqqoslash, raqobat) yuzaga kelishi mumkin.

Ota-onalar uchun

Ota-onalar — eng nozik va xilma-xil auditoriya. Ular farzandlarining farovonligiga qiziqadilar, biroq har birining tarbiya uslubi va pedagogik kompetentlik darajasi turlicha. Shuning uchun trening muloqot, hurmat va amaliy misollarga asoslanishi lozim.

Treningning asosiy vazifalari:

- **Psixologik-pedagogik kompetentlikni oshirish.** Ota-onalarda bolaning yoshga oid va individual-psixologik xususiyatlari, uning emotsional, kognitiv va shaxsiy rivojlanish qonuniyatlari, shuningdek, zamonaviy tarbiya va ta‘lim yondashuvlari haqidagi tasavvurlarni kengaytirish.

- **Konstruktiv tarbiya strategiyalarini shakllantirish.** Ota-onalarning o‘z tarbiya uslubini aniqlash va uning kuchli va zaif tomonlarini baholashga yordam berish; hurmat, muloqot va hamkorlikka asoslangan tarbiya amaliyotlarini tanlash qobiliyatini rivojlantirish.

- **Kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish.** Ota-onalarda faol tinglash, zo‘ravonlikka yo‘l qo‘ymay muloqot qilish, konstruktiv nizo yechish ko‘nikmalarini shakllantirish.

- **Oila ichidagi nizolarni bartaraf etish,** shuningdek bola bilan ochiq va ishonchli muloqotni qo‘llab-quvvatlash qobiliyatini rivojlantirish.

• **Nomuvofiq tarbiya modellarining oldini olish.** Avtoritar, haddan tashqari g'amxo'r yoki aksincha, mutlaq erkin tarbiya uslublarini qo'llashning oldini olish, ularning bolaning emotsional va shaxsiy rivojlanishiga uzoq muddatli salbiy oqibatlarini ko'rsatib berish.

• **Emotsional ishtirok va empatiyani rivojlantirish.** Ota-onalarda bolani emotsional qo'llab-quvvatlashga tayyorlik, uning his-tuyg'ularini anglash va tan olish mahoratini rivojlantirish, bu esa bolada ishonch va ijobiy munosabatni shakllantiradi.

• **Ota-onaning shaxsiy resursini mustahkamlash.** Shaxsiy psixologik imkoniyatlarni anglash uchun sharoit yaratish.

Bolalar uchun

Bolalar bilan trening formatida ishlashning o'ziga xos maqsad va xususiyatlari mavjud. Kattalardan farqli ravishda bolalarda yangi bilim va tajriba egallashning yetakchi usuli — o'yin bo'lib, bu jarayonda emotsional ishtirok va ishonchli muhit asosiy o'rin tutadi.

Bolalar bilan trening o'tkazishning o'ziga xos jihatlari:

• **O'yin shakli.** Har bir mashq o'yin, ertak, ijodiy vazifa yoki musobaqa orqali taqdim etilishi lozim.

• **Qisqalik va dinamiklik.** Uzoq vaqt diqqatni jamlash bola uchun qiyin, shuning uchun mashqlar qisqa va turli-tuman bo'lishi kerak.

• **Ko'rgazmalilik.** Yorqin materiallar, kartochkalar, rasmlar, turli buyumlar va multimedia elementlarini qo'llash muhim.

• **Qo'llab-quvvatlovchi muhit.** Bolada xatoga yo'l qo'yish va tanqiddan qo'rqish bo'lmagan sharoitda u o'zini erkin namoyon etadi.

• **Yosh xususiyatlarini hisobga olish.** Maktabgacha va boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar uchun faol va sodda o'yinlar, o'smirlar uchun esa rolli holatlar va munozaralar muvofiq.

• **Hamkorlik.** Jamoaviy ish shakli bolalarga o'zini jamoa a'zosi sifatida his etish va birgalikda ishlashni o'rgatadi.

Shu tariqa, bolalar uchun trening nafaqat alohida ko'nikmalarni rivojlantirish usuli, balki bolaning o'zini anglashi, olam bilan muloqot qilishi va yangi imkoniyatlarni kashf etishi uchun imkoniyat yaratadi.

Bolalar uchun treningning asosiy vazifalari:

• **Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish.** Bolalarga atrofdagilar bilan muloqot qilish, tengdoshlar va kattalar bilan o'zaro til topish, hamkorlik qilish malakasini o'rgatadi.

• **Ijobiy o'z-o'zini baholashni shakllantirish.** Guruh mashqlarida ishtirok etish va tengdoshlar qo'llab-quvvatlovini his etish orqali bola o'ziga ishonch va o'z kuchli tomonlarini anglaydi.

• **Emotsional intellektni rivojlantirish.** O'yinli ssenariylar yordamida bolalar o'z his-tuyg'ularini anglash, ifoda etish, boshqalarning hislarini tushunish va stressni yengishni o'rganadilar.

• **O'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish.** Bolalar diqqat, xulq va his-tuyg'ularini boshqarishning sodda usullarini o'zlashtiradilar.

• **Kreativlik va tasavvurni rivojlantirish.** O'yin va ijodiy topshiriqlar orqali bolalar standartdan tashqari yechimlar topish va individuallikni namoyon etish imkoniga ega bo'ladilar.

Treningning tuzilishi

Trening bir-biriga bog'liq bir nechta bosqichdan iborat bo'lib, har bir bosqich muayyan vazifani bajaradi va jarayonning yaxlitligini ta'minlaydi.

Salomlashuv.

Bu bosqich yetakchi va ishtirokchilar o'rtasida dastlabki emotsional-psixologik aloqani o'rnatishga xizmat qiladi. Unda xavfsizlik hissi yaratiladi, ishonch va guruh birdamligi muhiti shakllanadi. Guruh dinamikasi nuqtai nazaridan

salomlashuv ishtirokchilarni individual holatdan umumiy guruh maydoniga o'tishini ta'minlaydi.

Kirish bosqichi.

Ishtirokchilarning diqqatini faollashtirish, psixoemotsional zo'riqishni kamaytirish va ularni keyingi faoliyatga tayyorlashga qaratilgan. Asosiy vazifasi — guruhni ish holatiga o'tkazish, yangi tajribani qabul qilishga ichki tayyorlikni ta'minlash. Bu bosqich ta'limiy va tarbiyaviy jarayonda ishtirokchilarning kuchlanish va diqqat darajasini boshqarish, treningda ishtirok etishga motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi.

Asosiy qism.

Treningning markaziy qismi bo'lib, unda asosiy maqsad va vazifalar amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda yangi tajribani egallash, xulq-atvor modellarini shakllantirish, kommunikativ va emotsional-irodaviy ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoni kechadi. Asosiy qism ta'limiy va rivojlantiruvchi xarakterga ega bo'lib:

- ishtirokchilarni faol faoliyatga jalb qiladi;
- yangi o'zaro hamkorlik shakllarini mustahkamlaydi;
- o'z-o'zini boshqarish va refleksiya qobiliyatini rivojlantiradi.

Psixologiya nuqtai nazaridan bu bosqich kompetensiyalarni shakllantirish va amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash jarayoniga to'g'ri keladi.

Refleksiya.

Bu bosqichda ishtirokchilar olingan tajribani anglaydilar va uni shaxsiy bilim hamda ko'nikmalar tizimiga integratsiya qiladilar. Unda emotsional holatlarni belgilash, individual va guruh natijalarini anglash, o'zaro fikr almashish yuz beradi. Refleksiya o'zini anglashning muhim mexanizmi bo'lib, tashqi tajribani ichki shaxsiy yutuqlarga aylantirishga yordam beradi.

Yakuniy bosqich

Yakuniy bosqich trening jarayonining tugallangani va yaxlitligi hissini shakllantirishga qaratilgan. Unda ishtirokchilarda ijobiy emotsional holatni

mustahkamlash, natijalarni umumlashtirish va egallangan bilim hamda ko'nikmalarni keyingi faoliyatda qo'llashga yo'naltirilgan ruhiy tayyorlik vujudga keladi. Rivojlanish psixologiyasi nuqtai nazaridan bu bosqich motivatsiyani saqlash va guruhdagi ijobiy hamkorlik tajribasini boshqa faoliyat sohalariga ko'chirish vazifasini bajaradi.

Trening mashqlari "Salomlashuv"

Treningning birinchi bosqichida asosiy vazifa — ishtirokchilar uchun qulay sharoit yaratish, treningning asosiy xavfsizlik hissini ta'minlashdir. Bu ikki yo'nalish orqali amalga oshiriladi:

1. **Tanishuv** — ishtirokchilar bir-birini bilib oladi: "Ular kim? Qaysi joydan? Menga o'xshash jihatlari bormi, umumiy manfaatlarimiz mavjudmi?".

2. **Kutilayotgan jarayon va qoidalarni oydinlashtirish** — «Mendan yoqimsiz ishlar talab etilmaydimi? Bu menga nima beradi? Nufuzim va o'z-o'zini baholashimga zarar keltirmaydimi?» kabi savollarga javob berish.

Shuning uchun birinchi trening qismida asosiy ikki jarayon — **tanishuv** va **kutilayotgan natijalar hamda qoidalarni aniqlash**. Oddiy holda birinchi vazifani bajarishga ko'proq vaqt ketadi va uning yechim usullari ham ko'proq xilma-xil bo'ladi. Biroq bir qator mashqlar ikki vazifani ham bir vaqtda, qisman bo'lsa-da, hal qilish imkonini beradi.

Trener va ishtirokchilarning **o'zini tanishtirishi** (samoprezentatsiya) — dasturning majburiy va juda muhim qismi bo'lib, odatda birinchi trening kunining chorakdan uchdan bir qismigacha vaqtni egallaydi. Ishtirokchilarni tanishtirishning bir nechta usullari quyida keltirilgan:

1. **"Qor to'pi" usuli**. Har bir keyingi ishtirokchi avvalgilar aytgan ma'lumotni takrorlaydi. Bu usul ma'lumot hajmi kam va yodda saqlash oson bo'lgan hollarda (masalan, ism yoki ism + 1–2 xarakterli belgi) ma'qul.

2. **“Orqaga qadam” usuli.** Har bir ishtirokchi faqat o‘zigacha so‘z olgan kishining ma’lumotini takrorlaydi. Bu usul guruh katta yoki ma’lumotni yodda saqlash qiyin bo‘lgan hollarda foydali.

3. **«Estafeta».** Har bir ishtirokchi o‘z haqida (yoki o‘zining juftligi haqida) ma’lumot beradi va bu ma’lumot boshqalar tomonidan takrorlanmaydi.

4. **“Karusel”.** Ishtirokchilar ikki doira hosil qiladi: ichki va tashqi. Har bir tashqi doiradagi ishtirokchi har bir ichki doiradagi ishtirokchi bilan suhbat quradi.

5. **“Sparring”.** Ishtirokchilar juftlikka bo‘linib, bir-biri haqida ma’lumot almashadilar. Keyin har biri o‘z juftligi haqida aytib beradi. Ayrim qo‘llanmalarda jufting haqida “Mening ismim... Men...” deb birinchi shaxsda so‘zlash tavsiya qilinadi, lekin bu ba’zi ishtirokchilarda noqulaylik tug‘dirishi mumkin.

Bu usullarni uyg‘unlashtirish mumkin, masalan, avval “karusel”, keyin “estafeta” usulida davom etish.

Trenerning o‘zini tanishtirishi va tayyorgarligi

Trenerning shaxsiy namoyoni va butun trening davomida o‘zini nazorat qila olishi ham kam ahamiyatga ega emas. Trening boshlanishi — juda mas’uliyatli daqiqa bo‘lib, ko‘p tajribali, yuksak malakaga ega trener ham unda hayajonlanishi mumkin. Ortiqcha zo‘riqishni yengish va deyarli muqarrar xavotirni kamaytirish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

- Har bir mashqning yoki kamida hali avtomatik darajada o‘zlashtirilmagan mashqlarning to‘liq tavsifi yozilgan yordamchi qog‘ozni qo‘l ostida tayyorlab qo‘yish.
- Yangi trenerlar uchun mashqlar bo‘yicha aniq, ishonchli yo‘riqnomalar matnini oldindan chop etib tayyorlash juda foydali.

Yo‘riqnomalar **aniq, qisqa va bir xil talqin etiladigan** bo‘lishi shart. Noto‘g‘ri tushuntirilgan va ishtirokchilar tomonidan xato bajarilgan yo‘riqnoma:

1. trenerning ishini qiyinlashtiradi,
2. materialni to‘g‘ri o‘zlashtirishga to‘sqinlik qiladi,
3. guruhda norozilik va qarshilik uyg‘otishi mumkin.

Tajribasi hali kam bo'lgan trener uchun yo'riqnomani qog'ozdan o'qib berish mutlaqo maqbul: bu nafaqat ishonchni oshiradi, balki yo'riqnomaga qat'iy rioya qilish muhimligini ham ko'rsatadi.

“Faol ishtirokchi” mashqi

Ishtirokchilarning ismlarini yodda saqlashning samarali yo'llaridan biri — shu o'yinni o'ynashdir. Har bir ishtirokchi o'z ismi bilan bir xil harfdan boshlanadigan, o'ziga mos epitet (ta'riflovchi so'z) o'ylab topishi kerak.

Keyin ismlarni takrorlash “qor to'pi” usuli bo'yicha amalga oshiriladi: ikkinchi ishtirokchi birinchi ishtirokchining ismi va epitetini takrorlaydi, so'ng o'z ismi va epitetini aytadi; uchinchi ishtirokchi esa o'zini tanishtirishdan oldin ikkinchi ishtirokchi aytganini takrorlaydi va hokazo. Oxirgi ishtirokchiga (uning o'zi birinchi bo'lib boshlagan) eng qiyin vazifa to'g'ri keladi, shuning uchun ushbu rolning trenerning o'zi bajargani maqbul.

O'yinning boshqa variantida birinchi ishtirokchi quyidagi jumlaning aytadi: «Salom, men — aqlli Alisher», so'ng guruhdagi boshqa bir ishtirokchiga (o'ng yoki chap qo'shnidan tashqari) murojaat qiladi: “Sen kimsan?” Murojaat qilingan ishtirokchi javob beradi: «Salom, aqlli Alisher, men — mehribon Malika» va keyin navbatdagi ishtirokchiga xuddi shunday murojaat qiladi.

Trener vaqt-vaqti bilan tanishuv zanjirini to'xtatib, avval tanishtirilgan ishtirokchilardan birini ko'rsatib: “Bu kim?” — deb so'raydi. Guruh jo'r bo'lib javob beradi: “Bu — zukko Go'zal”.

O'yin shu tarzda davom etadi: har bir ishtirokchi o'zini tanishtirib, uning ismi guruh tomonidan kamida bir marta jo'r bo'lib aytilguniga qadar. Epitetlar bilan birga aytilgan ismlar yaxshiroq yodda qoladi, chunki inson qiyofasi bilan uning ismi o'rtasidagi bog'liqlik aniqroq va shaxsiylashgan shaklda namoyon bo'ladi. Shuningdek, agar guruhda bir xil ismli ikki kishi bo'lsa ham ularni adashtirish ehtimoli kamayadi. Bundan tashqari, ishtirokchilarning o'tmish tajribasidagi vaziyatlar bilan bog'liq noxush assotsiatsiyalar paydo bo'lishining oldi olinadi.

Guruh yetakchisi ishtirokchilar epitet topishda qiynalib qolmasligi uchun alifbodagi har bir harfga mos bir necha epitet variantlarini oldindan tayyorlab qo'yishi maqsadga muvofiq. Ishtirokchilarga o'z to'liq ismidan tashqari qisqartirilgan shaklini qo'llash yoki birinchi harfini familiyadan olishga ham ruxsat etish mumkin.

Bu mashq nafaqat guruh a'zolarining ismlarini yodda saqlashga, balki ularning shaxsiy faolligini oshirishga, refleksiyani kuchaytirishga va trening jarayoniga chuqurroq jalb etishga xizmat qiladi. Chunki har bir inson uchun o'z ismi o'ziga xos kuchli ruhiy stimul. Quyida har bir **lotin alifbosidagi** harf uchun qisqacha tavsiflovchi sifatlar ro'yxati (xarakteristika) taqdim etiladi. Bu ro'yxat o'quv-trening mashg'ulotlarida ishtirokchilar ismlarini eslab qolish va shaxsiy sifatlarni ifodalash uchun qo'llashga mosdir.

A — aktiv, ambitsiyali, ashaddiy, altruist

B — bardam, bahodir, bosiq, bilimdon

D — dono, dilbar, dadil, do'stona

E — e'tiborli, ezgu, energiyali, erkin

F — fidoiy, faol, farovon, fayzli

G — g'ururli, g'ayratli, gapdon, go'zal

H — halol, hushyor, hamjihat, hamsuhbat

I — ijodkor, intizomli, ilhomli, ishchan

J — jasur, jo'shqin, jozibali, jonkuyar

K — kuchli, kamtar, quvnoq, kreativ

L — latofatli, lutfli, liderlikka moyil, lirik

M — mehribon, matonatli, mulohazali, mard

N — nafis, nufuzli, nurli, nozik

O — ochiqko'ngil, odobli, oqilona, omadi baland

P — pok, puxta, pozitiv, parhezkor

Q — qat'iyatli, qudratli, qadrli, quvnoq

R — rostgo'y, rahbarlikka moyil, ruhan tetik, Ravshan

S — samimiy, sabrli, saxovatli, sog'lom fikrli

T — tadbirkor, talabchan, tinch, tirishqoq

U — uddaburon, ulug'vor, uyg'un, uyushgan

V — vafodor, viqorli, vorisli, voqeabop

X — xotirjam, xushchaqchaq, xayrixoh, xazilkash

Y — yuksak, yorqin, yuvosh, yumorli

Z — zukko, ziyrak, zavqli, zakovatli

«Uchta sifat, ular...»

Eng keng tarqalgan tanishuv usullaridan biri — guruh ishtirokchilariga o'zini tanishtirish va shu bilan birga ushbu trening mavzusiga muvofiq ravishda muvaffaqiyatga erishishga yordam beradigan uchta (ikkita yoki to'rtta) shaxsiy sifatini sanab o'tish taklif etiladi. Boshqa bir variantda ishtirokchilardan muayyan sohada shaxsiy samaradorlikni ta'minlaydigan va uni kamaytirishi mumkin bo'lgan sifatlarni (masalan, 2:1 nisbatida) birgalikda sanab o'tish so'raladi.

«Qanday tanishasiz?»

Chap tomonda o'tirgan ishtirokchi avvalgi so'zlovchining aytganini takrorlaydi, keyin xuddi shu tartibda o'zini tanishtiradi. Bu yerda bir marta takrorlash kifoya qiladi. Zanjirni uzaytirish tavsiya etilmaydi, chunki ishtirokchilar oldingi nutqlarda keltirilgan sifatlarni eslab qolishga ortiqcha kuch sarflab qo'yadi, holbuki mashqning asosiy maqsadi — ismlarni yodda saqlashni yengillashtirishdir. Sifatlarni shakllantirish jarayoni ishtirokchilar uchun ham muhim: bu ularning refleksiya qilishini faollashtiradi va trening mavzusining muammoli maydoniga chuqurroq kirishga yordam beradi. Bu trener uchun ham foydali, chunki u barcha eshitganini umumlashtirib, ularni treningning asosiy bloklari va vazifalari bilan bog'lab berishi mumkin.

Agar mashg'ulotni ikki trener va assistent olib borsa, ulardan biri aytilganlarni daftarga yoki darhol flipchart yoki doskaga qayd qilib borishi mumkin. Ishtirokchilar mashq davomida bu ro'yxatni ko'rmasligi maqsadga muvofiq, chunki ular sifatlarini yodda saqlab, keyin eslashga harakat qilishlari kerak, tayyor ro'yxatdan tanlab olishlari emas.

Kim bilandir birinchi marta uchrashish zarur bo'lsa, biz ko'pincha o'zimizni odamlar orasida tanib olishi uchun qandaydir o'ziga xos belgi bilan tavsiflaymiz: «Qo'limda o'tgan yilgi "Maktabgacha ta'lim" jurnali bo'ladi»; «Mening bo'yim bir metr to'qqiz yuz to'qson to'qqiz santimetr»; «Men yaqinda sochimni to'q kashtan rangiga bo'yadim».

Ushbu mashqda ishtirokchilarning vazifasi esa o'zini obyektiv belgilari (bo'yi, soch rangi va h.k.) orqali emas, balki shaxsiy xususiyatlari (masalan, beshtasi) orqali tavsiflashdan iborat. Yoki shaxsiy xususiyatlar bilan birga ularni guruhdagi boshqa barcha odamlardan ajratib turadigan hayotiy tajriba xususiyatlarini ham (kamida — ushbu guruhdagi boshqalardan farq qiluvchi) keltirish mumkin.

"Nima uchun va nima maqsadda?"

O'zini tanishtirishning yana bir varianti — ishtirokchining ismiga qo'shimcha ravishda bir yoki ikki savolga javob berishdan iborat. Guruhga bir-biriga o'xshashday tuyulgan ikki savol taklif etiladi: 1) "Nima uchun siz bu treningga keldingiz?" va 2) "Bu treningdan nima olishni istaysiz?". Bir qarashda o'xshash ko'rinsa-da, bu savollar biroz boshqacha mazmunga ega: birinchisi o'tmishga, ehtimol, muammoli nuqtalarga ishora qiladi, ikkinchisi esa maqsad va yaqin yoki uzoq kelajakdagi istiqbolga qaratilgan. Bu ikki savolni izohsiz ketma-ket berish orqali trener ular orasidagi farqqa e'tibor qaratmaydi, ammo qaysi savolga ishtirokchi ko'proq javob berishga moyil ekanini kuzatib boradi — bu esa keyingi ish jarayoni uchun muhim tashxis mezonini bo'lib xizmat qiladi.

Yana bir savol juftligi ishtirokchining jarayonga yoki natijaga yo‘nalishini aniqlashga yordam beradi: “Siz treningdan nima kutyapsiz? U qanday bo‘lishi kerak, deb o‘ylaysiz?” va “Treningning qaysi natijasi siz uchun eng yaxshi hisoblanadi?”.

“Shiorlar”

Guruhga yana bir tanishuv varianti taklif etilishi mumkin: ishtirokchi o‘z ismini aytar ekan, hayotiy shiorini ham bildirishi lozim. Mashqning qiyinroq turida ishtirokchilarga shiorni shakllantirishda hech qanday “chegara” berilmaydi. Ba’zilarida treninggacha ham hayotidagi tayyor shior bo‘lishi mumkin. Ammo ko‘pchilik uchun bu topshiriqni darhol bajarish oson emas. Shuning uchun trener guruhga yetarli vaqt berishi va savolni darhol aylanma tarzda so‘rashga oshiqmasligi muhim.

Ish yakunida (yoki muayyan vaqt o‘tgach, trening kontekstiga qarab) trener guruhga mashhur odamlarning shiorlari va qanotli iboralari, shuningdek trening mavzusi bilan bog‘liq maqol va hikmatli gaplarni o‘qib berish yoki muhokama qilishni taklif etishi mumkin. Masalan, vaqtni boshqarish yoki yetakchilik ko‘nikmalariga oid treninglarda bunday ma’lumot juda o‘rinli bo‘ladi.

Soddaroq variant sifatida ishtirokchilarga “Men ... uchun yashayman” va/yoki “Men ... uchun ishlayman” kabi iboralarni davom ettirishni taklif qilish mumkin.

“Yana bir bor salom”

Bu mashq harakatli unsurga ega bo‘lib, ishtirokchilarda ish boshida tabiiy ravishda yuzaga keladigan taranglikni kamaytiradi. Shuningdek, u ishtirokchilarni bir-biri bilan muloqotga kirishishga imkon beradi. Muloqotga kirishish har doim hissiyotlar bilan uyg‘un bo‘ladi, bu esa ma’lumot, jumladan ismlarni yodda saqlashni yengillashtiradi. Shu bilan birga qo‘l berib ko‘rishish — ijtimoiy jihatdan neytral aloqa turi bo‘lib, u ishtirokchilarda noqulaylik yoki shubha tug‘dirmaydi.

Guruhga o‘rinlaridan turib, xonani aylanib yurish taklif qilinadi. Ishtirokchilarning vazifasi — har bir hamkasbi bilan qo‘l berib ko‘rishish. Qo‘l berib ko‘rishish paytida bir-birining ko‘ziga qarab, ismni aytib tanishish kerak: “Men —

Nigora”, “Men — Damir”. Ismdan tashqari boshqa ma’lumot aytish shart emas. Ishtirokchilar har bir hamkasbining ismi va qiyofasini yodda saqlab qolishga intilishlari lozim. Har kim har biri bilan qo’l berib ko’rishganidan so’ng o’yinning birinchi aylanasi tugaydi.

Ikkinchi aylanada ishtirokchilar yana qo’l berib ko’rishadilar, lekin bu gal ular o’zini tanishtirmay, balki sherigini ismi bilan chaqirishi kerak: “Salom, Nigora!” yoki “Xayrli tong, Damir!”. Agar kimdir sherigining ismini eslay olmasa, yana so’rab bilishi mumkin. Ikkinchi aylana barcha ishtirokchilar takroran qo’l berib ko’rishguncha davom etadi.

“Men yaxshi insonman”

Bu mashqni juftliklarda yoki darhol aylanada o’tkazish mumkin. Agar ish uchun vaqt yetarli bo’lsa, juftliklarda o’tkazish maqbuldir. Guruh juftliklarga bo’linadi. 60 soniya davomida bir ishtirokchi “solist” sifatida chiqish qiladi, keyin ular rollarni almashadilar. “Solist”ning vazifasi — o’zining ijobiy jihatlari haqida sherigiga maksimal ma’lumot berish, o’ziga yoqadigan sifatlarini bayon qilishdan iborat. Bu shaxsiy sifatlar, tashqi qiyofaga oid jihatlar, yengilgan qiyinchiliklar, qilingan yaxshi ishlar, erishilgan malaka kabi har qanday narsa bo’lishi mumkin — eng muhimi, ular ishtirokchining o’zida intilish va faxr tuyg’usini uyg’otishi lozim.

Tinglovchi esa sanab o’tilgan sifatlarni baland ovozda sanaydi, qiziqish va qo’llab-quvvatlashini bildirib, sherigini davom ettirishga rag’batlantiradi. Keyin juftliklar rollarni almashadilar.

Juftliklar ma’lumot almashib bo’lganidan so’ng, ular guruhdagi boshqa ishtirokchilarga bir-biri haqida so’zlab berishi kerak. Tabiiyki, ma’lumotning to’liq hajmini qayta ifoda etish imkoni bo’lmaydi — xotira mexanizmlari va cheklangan vaqt bunga imkon bermaydi. Trener buni oldindan tushuntirib o’tishi zarur: ishtirokchilar o’z sherigi haqida eslariga birinchi bo’lib kelgan bir necha ma’lumotni sanashlari yetarli, ularning qaysi biri muhim ekanini o’zlari baholashlari shart emas

(“Biz insonning o‘zi uchun qaysi narsa muhimroq yoki kam ahamiyatliroq ekanini baholashga haqli emasmiz”). Chunki egalari uchun eng muhim bo‘lgan jihatlar boshqalar tomonidan boshqacha baholanishi va bu noxush hissiyotlar yoki treningga qarshilik keltirishi mumkin.

Agar vaqt cheklangan bo‘lsa, ishni aylana tarzida ham o‘tkazish mumkin. Bunday holda ishtirokchilarga taqdimot uchun vaqt (60 soniya) emas, balki sifatlar soni (masalan, 5–7 ta) bo‘yicha me‘yor qo‘yish maqsadga muvofiq. Bu mashqni yengilroq qiladi.

“Xalqaro simpozium”

Mashq ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich. Ishtirokchilarning har biriga 4–6 ta savoldan iborat anketa blanki beriladi. Savollar to‘liq javob talab qiladigan ochiq yoki bir necha variantdan birini tanlashni talab qiladigan yopiq shaklda bo‘lishi mumkin. Trenerning vazifasi, trening dasturi va guruh xususiyatiga qarab, savollar jiddiy yoki yarim hazilomuz bo‘lishi mumkin, ammo ular albatta trening mavzusiga tegishli bo‘lishi shart. Savollar juda chuqur yoki bahsli bo‘lmasligi kerak, chunki bu bosqich uchun 5–7 daqiqa ajratiladi va ishtirokchilar shu vaqtda barcha savollarga javob berib ulgurishlari lozim.

Ikkinchi bosqich. Trener quyidagi ko‘rsatmani beradi: «Endi sizning vazifangiz — so‘rovnoma natijalariga ko‘ra o‘zingizga hamfikrlar topib, ular bilan jamoa tuzish. Qaysi prinsip asosida jamoalar tuzilishi va necha jamoa chiqishi — buni o‘zingiz hal qilasiz». Bu bosqich uchun guruhning faolligiga qarab 5–15 daqiqa ajratish maqsadga muvofiq.

Jamoalar shakllangandan keyin ularga quyidagi topshiriq beriladi: “Tasavvur qiling, siz trening mavzusi bilan hamohang bo‘lgan biror muammoga bag‘ishlangan xalqaro simpoziumda ma’ruza qilasiz. Sizning vazifangiz — chiqishingizning asosiy tezislari ishlab chiqish va ularni delegatsiyangizning shiori va ramzida ifoda etish”.

Bu ish taxminan 10–15 daqiqa davom etadi. Guruhlar chiqishga tayyor bo'lganlaridan keyin ular umumiy aylanada o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Prezantatsiyalar yakunlangach, trener barcha chiqishlarni umumlashtirib, trening mavzusi bilan bog'liq xulosalarni belgilab beradi.

Bu mashq ishtirokchilarning treningda o'qish va jamoaviy ishga qiziqishini oshiradi, o'rganilayotgan mavzuda e'tiborni jamlashga yordam beradi. Agar trening boshlanishidan avval guruh a'zolari bir-birini tanimagan bo'lsa, ushbu mashq ularga dastlabki muloqot o'rnatish va haqiqiy hamfikrlarni topish imkonini beradi, bu esa trening muhitida o'zini erkin his qilishni osonlashtiradi.

Trener uchun esa bu ish guruh dinamikasi istiqbollari (guruhning umumiy faolligi, yetakchilikka da'vogarlar, jamoaviy ishga tayyorlik darajasi va h.k.), shuningdek ishtirokchilarning shaxsiy motivatsiya va munosabat xususiyatlari haqida keng tashxis materialini taqdim etadi. Trener anketa savollarini rejalashtirilgan mavzuli bloklarni hisobga olgan holda tayyorlashi va keyingi mini-ma'ro'zalar hamda muhokamalarda ishtirokchilar javoblariga murojaat qilishi, shuningdek o'yinli mashqlarda rollarni taqsimlashda inobatga olishi mumkin.

“Kutilmalar va istiqbollar protokoli”

Bu mashq ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqich. Har bir ishtirokchi kartochkadagi blankni oladi (yoki ish daftaridagi tegishli sahifaga murojaat qiladi). Blank quyidagicha tuzilgan:

Men ushbu trening natijasidan juda mamnun bo'laman, agar:

- 1.
- 2.
- 3.
- 4.
- 5.

Mashg'ulotda ishtirok etish men uchun yoqimli bo'ladi, agar trening ishtirokchilari (yetakchilari):

- 1.
- 2.
- 3.
- 4.
- 5.

Ishtirokchilardan blankni ko'p o'ylamasdan, birinchi yodga kelgan fikrlarni yozib to'ldirish so'raladi.

Ikkinchi bosqich. Har bir ishtirokchi yozganini guruhga o'qib beradi. Trener muhokamani ikki asosiy savol asosida olib boradi: "Sizcha, bu qay darajada amalga oshishi mumkin?"; "Guruhda yana kim shunday istak bildirgan?".

Trenerning yana bir vazifasi — ishtirokchilarning salbiy tusdagi javoblarini ijobiy shaklga o'tkazishga yordam berish. Masalan, "Men guruhda o'zim noo'rin yoki yoqimsiz deb hisoblagan ishlarga majburlanmasam, ishtirok etish men uchun yoqimli bo'ladi" degan fikrni "Men guruhda ishtirok etganda tanlash erkinligiga ega bo'lsam, men uchun yoqimli bo'ladi" tarzida qayta ifoda etish maqsadga muvofiq.

"O'zingizga yozgan xat"

Bu shakldagi mashq trening ishining boshlanishi va yakunlanishiga xizmat qiladi. U ikki bosqichda o'tkaziladi: birinchisi — treningning boshida, ikkinchisi — uning yakuniy bosqichida.

Ushbu mashqning maqsadi — ishtirokchilarning treningda ishlashga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytirish, ularning shaxsiy va kasbiy maqsadlari haqida refleksiyasini rag'batlantirish, trening mavzusi doirasidagi ish va mulohazalar tajribasini faollashtirishdan iborat.

Har bir ishtirokchiga treningning nomi, ramzi va o'tkazilish sanasi ko'rsatilgan konvert hamda qog'oz varaq beriladi.

Avvalo ishtirokchilar o'z konvertlarini yozib qo'yishadi. Konvertda kamida ism va familiya bo'lishi maqsadga muvofiq (agar ishtirokchilar turli shaharlardan kelgan bo'lsa, shahar nomi ham; agar bu biznes-trening bo'lib, ular turli kompaniyalarni

ifodalasa, kompaniya nomi ham yoziladi). Konvertlarni imzolash ikki sababga ko'ra zarur: birinchi — ikkinchi bosqichda yopiq konvertlarni taqsimlashni yengillashtiradi; ikkinchi — ishtirokchilarning o'z so'zlariga nisbatan mas'uliyatini oshiradi. Shu sababli konvertni faqat shifr, monogramma, rasm va shu kabi belgilar bilan belgilash maqbul emas.

Keyin ishtirokchilar qog'oz varaqda treningdan kutgan natijalarini erkin shaklda yozadilar: qanday ko'nikmalarni egallash, qanday nazariy ma'lumotlarni olish, trenerga qanday savollar berish va guruhdagi boshqa ishtirokchilar bilan nima haqida fikr almashishni istashlarini ko'rsatadilar. Shuningdek, treningda ishtirok etishdan ko'zlangan shaxsiy va kasbiy maqsadlarini aniq bayon etishlari zarur. Masalan: kasbiy aloqalar doirasini kengaytirish, malaka oshirish, muayyan muammoni hal etish va h.k.

Trener mashq boshlanishidan oldin ishtirokchilarni xabardor qiladi: ular yozgan xatni o'zlaridan boshqa hech kim o'qimaydi, uning mazmuni muallifning o'zigagina ma'lum bo'ladi va guruhda muhokama qilinishi shart emas (faqat ishtirokchining o'zi xohlasa, ayrim masalalar muhokamaga qo'yilishi mumkin).

Xatlar yozib bo'lingandan so'ng (bunga 5—10 daqiqa ajratiladi), ularni konvertlarga solib, ishonchli tarzda yopish (masalan, skotch yordamida) kerak. Konvertlar trenerga topshiriladi va treningning so'nggi kuniga qadar ular butunligicha saqlanadi. Ikkinchi bosqichda, ya'ni trening yakunlanishida konvertlar ishtirokchilarga qayta beriladi.

“Dasturxon atrofida suhbat”

Trener ishtirokchilarni yaxshi restoran yoki kafe muhitiga sho'ng'itadi (mazkur joyga kelib, mazali ovqat yeyish va suhbatdan zavq olish haqida bir necha kirish so'zlari aytiladi). Agar texnik va ijodiy imkoniyatlar bo'lsa, muhitni kuchaytirish uchun eshitish va hid bilish kanallaridan foydalanish mumkin (masalan, orqa fonda musiqa va bokallar jarangi, ozgina kulinar yog'laridan foydalanish va o'yindan keyin xonani shamollatish).

Guruh erkin ravishda xona bo'ylab harakatlanadi. Metrdotel (yetakchi) "Ikki kishilik stol!" deb chaqirganda ishtirokchilar juftliklarga bo'linib, bir-biriga tanishadi va trener belgilagan mavzu bo'yicha bir necha daqiqa suhbat qiladilar. Mavzu trening muammosiga ("Haqiqiy rahbar qanday bo'lishi kerak?", «Mukammal pedagog nomuvaffaqiyatli pedagogdan nimasi bilan farq qiladi?») yoki ishtirokchilar dam olish istaklariga ("Qayerda ta'tilni o'tkazgim kelardi?") oid bo'lishi mumkin.

Keyingi "To'rt kishilik stol!" buyrug'iga ko'ra juftliklar ikkiga qo'shilib, bir-biri bilan tanishadilar va navbatdagi mavzuni muhokama qiladilar. Agar guruh katta bo'lsa, keyin ularni sakkiz kishilik stollarga joylashtirib, jarayon yana takrorlanishi mumkin.

So'nggi bosqichda guruh yana aylana bo'lib o'z o'rniga qaytadi. Suhbat ishtirokchilar bir-biri haqida qanday yangi va qiziqarli ma'lumot olgani yoki qanday umumiy jihatlarni topgani haqida bo'lishi mumkin.

"Sizning ismingiz — qo'ldagi qor uchquni..."

Agar tanishuv qismiga yetarli vaqt ajratilgan bo'lsa va guruhni birlashtirish, ishtirokchilarda xavfsizlik va jamoaga tegishlilik hissini kuchaytirish muhim bo'lsa, ushbu mashqni o'tkazish juda foydali.

Ishtirokchilar aylana bo'lib o'tirishadi. Har biri o'z navbatida ismini aytib, uning tarixi haqida so'zlab beradi. Odatda odamlar o'z ismi haqida gapirishga oson kirishadilar, ammo birinchi qadamni yengillashtirish uchun ularga quyidagi savollar ro'yxati taklif etilishi mumkin:

- Meni turli odamlar odatda qanday chaqirishadi?
- Men o'zimni qanday atashlarini afzal ko'raman?
- Ismimni kim qo'ygan?
- Oilamizda yana kimdir shu ismga egami?
- Qaysi mashhur damlarimni eslay olaman?
- Mening ismim nima ma'noni anglatadi?
- Men boshqa ism bilan atalishni xohlardimmi?

- Ismim bilan bog'liq qiziqarli voqealar bo'lganmi?

Har bir ishtirokchi chiqishi uchun vaqtni cheklash mumkin, lekin shoshilmasdan har kimga o'zicha to'liq gapirish imkoniyatini berish yaxshi — odatda bu uch-besh daqiqadan oshmaydi.

Bu o'yinni aylana bo'lib o'tkazish tavsiya etiladi, guruh katta bo'lsa ham, uni kichik guruhlariga bo'lish shart emas. Mashq maxsus xulosa chiqarishni talab qilmaydi: u ishtirokchilarga kuch-quvvat beradi va lirik kayfiyat uyg'otadi. Shuningdek, tanishuv qismi yakunida va birinchi tanaffusdan oldin o'tkazish uchun juda qulay.

“To'rt burchak — to'rt tanlov”

Guruh uchun trening xonasining burchaklariga erkin yetib borish imkonini yaratish kerak.

Har bir burchakka trener yozuv bitilgan qog'oz ilib qo'yadi — unda “tanlov” varianti qayd etiladi. Alternativalar neytral mavzularga ham, trening mavzusiga ham taalluqli bo'lishi mumkin:

- Ranglar: qizil, sariq, ko'k, yashil.
- Geometrik shakllar: doira, uchburchak, to'rtburchak, trapetsiya.
- Fasllar: qish, bahor, yoz, kuz.
- Muvaffaqiyatli siyosatchining asosiy sifatleri: aql, nomus, vijdon, xarizma.
- Qaysi bola eng “qiyin”: qattiqqo'l, tinmas, yopiq (kamgap), agressiv.

Har bir ishtirokchining vazifasi — tanlagan pozitsiyasi joylashgan burchakka borib, nima uchun aynan shu alternativani tanlaganini o'sha yerda to'planganlarga so'zlab berish. Qo'shimcha vazifa — o'zi bilan bir guruhga tushganlarning kim ekanini eslab qolish.

O'yin yana uch marta takrorlanadi: har safar yetakchi varaqlarga yangi alternativallarni yozib qo'yadi.

To'rt raunddan so'ng guruh aylanaga yig'iladi va trener quyidagicha savollar beradi: mashq davomida kimlar bilan ko'proq bir burchakda uchrashdingiz, kim

bilan esa biror marta ham to'g'ri kelmadingiz; guruhdoshlar haqida nima yangi narsa bildingiz; eshitgan dalillardan qaysilari sizga ajablanarli tuyuldi?

Vazifani qiyinlashtirish va intriga elementini qo'shish uchun o'rta bosqich joriy etish mumkin. Yetakchi to'rt alternativa e'lon qiladi, ammo ishtirokchilar yarim daqiqa — bir daqiqa joyidan qo'zg'almasdan, kimlar bilan bir kichik guruhga tushishini yoki ishtirokchilar umumiy tarzda qay tarzda taqsimlanishini oldindan taxmin qilib ko'radilar. To'g'ri taxminlar soni muhokama yakunida sanab chiqiladi; eng intuitiv ishtirokchi sovrin oladi. Sovrin — foydali диагностик ma'lumotlar ko'rinishida — diqqatli trenerga ham nasib etadi.

“Brauncha harakat”

Bu mashq ishtirokchilarga harakat qilish imkonini beradi, bu esa mushaklar tarangligi va ichki zo'riqishni kamaytiradi. Mashq vaqtida ishtirokchilarni diqqat bilan kuzatsangiz, ularning trening jarayoniga qay darajada emotsional jalb etilgani yoki aksincha, guruhdan uzoqlashganini ko'rish mumkin.

Ishtirokchilar musiqa qo'yilgan paytda xona bo'ylab faol harakatlanadilar. Musiqa to'xtashi bilan yetakchi biror raqamni aytadi; ishtirokchilar qo'l ushlashib, o'sha raqamga teng kishidan iborat kichik guruhlariga birlashishlari kerak.

“Bizning tosh — sizning bog'chaga”

Bu tabassum olib keluvchi qizdiruvchi mashqni treningning birinchi kuni, ishtirokchilar tanishgan zahoti o'tkazish ma'qul. Mashq jamoaviy o'zaro hamkorlikni rivojlantiradi, ishtirokchilarning bir-birini “his etishi”ga, ortiqcha kamtarlik va yopiqlikdan xalos bo'lishiga yordam beradi. Guruh topshiriqqa ijodiy yondashsa, ishtirokchilar ko'plab ijobiy emotsiyalarga ham ega bo'ladilar.

Mashq uchun guruh ikki jamoaga bo'linadi. Yetakchi o'yinda ishtirok etadi va o'z kichik guruhidagilardan oldilarida katta, og'ir tosh borligini tasavvur qilishlarini so'raydi. Trener ishtirokchilarga ushbu majoziy “tosh”ni ko'tarib, kuch sarflagan holda uni uzoqroqqa — hatto raqiblar tomonga — otishni taklif etadi. O'z kuchi imkoni qadar ta'sirchan ko'rsatilishi kerak, ammo topshiriq jamoaviy tarzda

bajarilayotgani unutilmasligi zarur. Keyin yetakchi va uning guruhi ikkinchi jamoani qandaydir usulda javob qaytarishga chorlaydi. Guruh “tosh”ni qayta “otishi”, uni “derazadan chiqarib yuborishi” yoki boshqa biror harakatni amalga oshirishi mumkin. Topshiriqni bajarishda ikkinchi jamoa ham o‘z kuchini, jangovar ruhini va muvofiqlashgan harakatini namoyon etadi.

O‘yinga yana bir raund qo‘shish mumkin, ammo bu safar “qo‘rquv uyg‘otuvchi harakatlar” shaklini i

shtirokchilarning o‘zi o‘ylab topadilar.

“Qidiruvchi” (razvedkachi)

Trening boshida, ishtirokchilar hali ismlarni eslab qolayotgan paytda, quyidagi o‘yinni taklif etish mumkin. U orqali nafaakat hamkasblar ismlarini qayta-qayta esga olish, balki ishga jalb etilganlik darajasini va diqqatni oshirishga ham erishiladi. Topshiriqni muvaffaqiyatli bajarish uchun ishtirokchilar nihoyatda diqqatli, jamlangan va qoidalar o‘zgarishiga tezda moslasha olishlari kerak.

Ishtirokchilar aylana bo‘lib, stullarda o‘tiradilar. Trener quyidagi qoidalar (o‘yin davomida ular o‘zgarishi mumkin) amal qilgan holda, hamma bir-biriga savol beradi, deb e‘lon qiladi. Boshlang‘ich qoidalar:

- bir ishtirokchi boshqasiga ismi bilan murojaat qilib, unga ixtiyoriy savol beradi;
- bu savolga u emas, balki uning chap tomonida o‘tirgan kishi javob beradi;
- keyin javob bergan kishi navbatdagi ishtirokchiga o‘z savolini beradi, unga esa uning chap qo‘shnisi javob beradi va hokazo.

Kimdir ikkilanayotgan bo‘lsa yoki navbatidan tashqari javob bersa, o‘yindan chiqib ketadi. Trener o‘yin sur‘atini baland ushlab turishga undaydi.

Ishtirokchilar topshiriqni oson bajara boshlaganda, trener yangi qoida kiritadi: masalan, endilikda savolga javob aylana bo‘ylab soat millari yo‘nalishi bo‘yicha bitta odamni qoldirib o‘tirgan ishtirokchi tomonidan beriladi.

Ko'rsatmalarni bir necha marta o'zgartirish mumkin — bu ishtirokchilarni doimiy ravishda diqqatni jamlash va tez qayta sozlanishga majbur qiladi.

Savollarning mavzusini trening nomidagi mavzular bilan bog'lash mantiqan to'g'ri: bu ishtirokchilarni muammo maydoniga chuqurroq sho'ng'itish, shuningdek, ularning qiziqish va munosabatlari haqida qo'shimcha ma'lumot olish imkonini beradi.

“Balandparvoz so'zlardan qo'rqmaylik”

Trening boshida muayyan taranglik va yopiqlik — tabiiy hol. Bu mashqni yarim hazilomuz ruhda o'tkazish ishtirokchilarga o'zini erkinroq his qilishga yordam beradi. Eng muhimi, bunda hamma obrazli tarzda fikr-mulohazalarni — ya'ni atrofdagilarda qanday birinchi taassurot qoldirishini — oladi.

Mashq uchun har bir ishtirokchining orqa qismiga qog'oz varag'i mahkamlanadi, unga boshqalar turli iboralar yozib qo'yadi. Yetakchi buyrug'i bilan hamma xona bo'ylab erkin yuradi va hamkasblarini diqqat bilan kuzatadi; kim haqida qandaydir assotsiatsiyaviy ibora paydo bo'lsa, uning orqasidagi qog'ozga yozib qo'yadi. Iboralar balandparvoz bo'lishi mumkin, lekin aslo haqoratomuz yoki ikki ma'noli bo'lmasligi kerak.

Mashq uchun 10—15 daqiqa beriladi. Tamom bo'lishiga bir daqiqa qolganda trener ishtirokchilarni shoshilishga chaqirib, hali yoza olmaganlarga ham iboralar yozishni so'raydi. Keyin hamma qog'ozlarni yechib, yozilganlar bilan tanishadi. Albatta, muhokama o'tkaziladi: kim o'zini bu iboralarda tanigani, kimga ular mutlaqo to'g'ri kelmagandek tuyulgani, assotsiatsiya o'ylab topish qanchalik oson bo'lgani va h.k.

Bu mashqni ikkinchi marta treningning so'nggi kunida ham o'tkazish mumkin, shunda ishtirokchilar boshida qanday taassurot qoldirgani va oxirida qanday o'zgarganini taqqoslab ko'rish mumkin.

“...Va yana salom!”

Qisqa tanaffuslar, kofe-breyk va tushlikdan keyin guruh a'zolarining qaytishi — birinchi kun boshlanishiga qaraganda biroz kam ahamiyatga ega bo'lsa-da, bu onni to'g'ri boshqarish trening bloki materialini yaxshiroq o'zlashtirishga yordam beradi va guruh dinamikasiga siz xohlagan yo'nalishda ta'sir ko'rsatishi mumkin.

“Anagrammalar”

Anagramma — boshqa so'z yoki birikma harflarini joyini almashtirish orqali hosil qilingan so'z yoki birikma (“anagramma” — “namamarga”). Guruhga turli murakkablikdagi 5—7 anagrammani taklif etgan ma'qul. Bu kontekstda topshiriq musobaqaviy emas, shuning uchun har bir ishtirokchi — verbal intellekt darajasidan qat'i nazar — kamida qisman uddalash imkoniga ega bo'lishi kerak.

Topshiriqda qo'llanadigan atamalar trening mazmuniga mos bo'lishi lozim (masalan, kommunikativ trening uchun “dalil” va “ishontirish”, vaqtni boshqarish treningi uchun “maqsad qo'yish” va “xronometraj”). Bunda ishtirokchilar muammo maydoniga chuqurroq kiritiladi, topshiriq esa ular tomonidan asoslangan deb qabul qilinadi.

Guruh aylanada soat millari yo'nalishi bo'yicha ma'lum bir belgining kuchayib/susayib borishiga qarab joylashish topshirig'ini oladi; yetakchining chap tomonida — qatorning boshidagi, o'ng tomonida — oxiridagi ishtirokchi turadi.

«... bo'yicha saflanish» (qayta joylashish)

Saflanish mezonini yetakchi belgilaydi. Agar bir necha aylanani o'tkazish kerak bo'lsa, keyingi mezonni qatorning boshiga yoki oxiriga tushgan ishtirokchi taklif qilishi mumkin. Sodda variantda kuzatish mumkin bo'lgan obyektiv mezonlar beriladi — bo'y, soch yoki ko'z rangi. Mashqni qiyinlashtirish, trening mavzusi bilan chuqurroq bog'lash va ishtirokchilar orasida muloqotni rag'batlantirish uchun murakkabroq mezonlar taklif etiladi (masalan, yetakchilik ko'nikmalari treningida — “rahbarlik lavozimida bo'lgan davomiylik”).

Shuningdek, guruhga sukut saqlagan holda — verbal muloqotsiz — saflanish vazifasini berish mumkin. Bu qo'shimcha harakat va beqarorlik kiritadi, ammo jarayonni jonlantiradi.

Bu psixogimnastik mashq bir necha funksiyani bajaradi:

1. ishtirokchilarda yetarlicha faol harakatni nazarda tutadi, bu ularning faollik darajasini oshiradi;

2. guruh a'zolarining makon bo'yicha odatiy joylashuvi stereotipini buzadi — bu ilgari muloqot qilmaganlarni o'zaro aloqada bo'lishga chorlaydi; makonni o'zgartirish ba'zan tafakkur nuqtai nazarini ham o'zgartiradi;

3. agar kechikayotgan ishtirokchini kutishga vaqt qolmagan bo'lsa, guruhdan u qatorda qaysi o'rinni egallashi mumkinligini taxmin qilish so'ralishi mumkin — shu tarzda guruh uni simvolik ravishda o'z tizimiga “qaytarib qo'yadi” va keyingi yo'qligi kamroq e'tibor tortadi;

4. trener jarayondan ko'plab foydali диагностик ma'lumotlar olishi mumkin: kim yetakchilikni o'z zimmasiga oldi, kim passiv qoldi; kim mezon tanlashda standart yo'lni tanladi, kim kreativ yondashdi; kim xavfsiz, tashqi mezon taklif qildi, kim esa chuqurroq mazmunga kirishga urinadi?

«Cho'pon raqsga tushdi»

Ishtirokchilarning vazifasi — bir necha daqiqa ichida barcha so'zlari bir xil harfdan boshlanadigan kichik hikoya tuzish. Hikoya besh-yetti jumladan iborat bo'lishi mumkin.

Hikoyalar yozib bo'lingach, aylanada o'qib eshittiriladi. Guruh kichik bo'lsa — barchasi, katta bo'lsa — tanlab o'qilsa bo'ladi yoki individual ijodiy topshiriqlarda o'zini ishonchsiz his qiladiganlar bo'lsa, ularni majbur etmaslik mumkin.

Odatda hikoyalar janr va mavzusiga ko'ra juda turlicha chiqadi; bu esa bir xil kirish shartlari turli odamlar tomonidan mutlaqo boshqacha talqin etilishini ko'rsatadi — bu ham o'zaro hamkorlikni boyitish, ham ayrim tushunmovchiliklarni

keltirib chiqarishi mumkin. Bu mavzular kommunikativ treninglarda, jamoa tuzish treninglarida, yetakchilik treninglarida va boshqalarda baribir muhokama qilinadi.

“Joyini almashtiradi — kimki...”

Bu mashq treninglarda tez-tez qo'llanadi. U bolalarga ham, kattalarga ham yoqadi. Kulguli, harakatli qizdiruv orqali ishtirokchilarning passivligi va charchog'ini oson yengish mumkin. Mashqni istalgan paytda to'xtatish mumkin, shuning uchun ayniqsa tanaffuslardan so'ng, hali hamma qaytmagan mahalda o'tkazish qulay. Shuningdek, mashq ishga qayta kirishish, davomiy mashg'ulotga ruhiy tayyorgarlik va diqqatni jamlashga yordam beradi.

Barcha ishtirokchilar aylana bo'lib, stullarga o'tiradilar. Yetakchi o'z stulini olib qo'yadi va tez orada biror sifat yoki buyum nomini aytishini, bu sifat (yoki buyum) mavjud bo'lganlar esa joyini almashtirishini e'lon qiladi. Ishtirokchilar bo'shab qolgan stulni imkoni boricha tez egallashga harakat qiladilar. Joy topa olmagan odam yetakchiga aylanadi. Har bir yangi aylana “Joyini almashtiradi — kimki...” degan so'zlar bilan boshlanadi.

Avvaliga o'yinga soddaroq belgilardan kirish ma'qul. Masalan, yetakchi sochi och ranglilar, kiyimida qizil rang borlar, bo'sh vaqtini do'stlari bilan o'tkazishni xush ko'radiganlar... kabilarni joy almashtirishga chaqirishi mumkin.

Keyinchalik ifoda va mezonlar chuqurroq, refleksiya talab qiluvchi, muayyan диагностик ma'lumot beradigan darajaga o'tkazilishi mumkin. Masalan: joyini almashtiradi — o'z-o'zini ifoda etish erkinligini karyera pog'onasida ilgarilashdan ustun qo'yuvchilar; ishda bajariladigan vazifalardan ko'ra jamoani muhimroq deb biladiganlar va h.k. Trener oldindan mashg'ulot mavzusi bilan bog'liq bir qator xarakteristikalarini tayyorlab qo'yishi yoki qo'shimcha shart joriy qilishi mumkin — unga ko'ra, xarakteristikalarini trening mavzusi bilan bog'liq holda ishtirokchilarning o'zi o'ylab topadi.

“Kenguru”

Ushbu quvnoq qizdiruvchi mashq taranglikni juda yaxshi kamaytiradi, ishtirokchilarning o'zini erkinroq va ochiqroq his etishiga yordam beradi. Yetakchi san'atkorlik qobiliyatiga ega bo'lishi maqsadga muvofiq bir ishtirokchini eshikdan tashqariga chiqarib, unga quyidagi yo'riqnomani beradi: u guruh oldida **kenguruni tasvirlashi** kerak bo'ladi — kimdir uning kimni namoyon qilayotganini topguncha. Shu paytda yetakchi guruhga quyidagini aytadi: "Hozir ishtirokchi kenguruni ko'rsatadi, siz esa besh daqiqa davomida go'yo topmoqchi bo'layotgandek ko'rinishingiz kerak, lekin kengurudan boshqa istalgan hayvon nomini aytavering."

"Matbaa mashinkasi"

Ushbu mashq ishtirokchilarning tinchlanishi va tanaffusdan keyin ishga qaytishga ruhiy tayyorgarligini ta'minlaydi. Shuningdek, uni ishtirokchilarning diqqatini ma'lum bir topshiriqdan chalg'itib, keyingi bosqichga o'tishda ham qo'llash mumkin.

Ishtirokchilar mashqni aylana bo'lib o'tirgan holda bajaradilar. Har bir kishi o'ng qo'lini o'ng tomonidagi qo'shnining tizzasiga, chap qo'lini esa chap tomonidagi qo'shnining tizzasiga qo'yadi. Keyin barcha o'z navbati bilan qo'shnisining tizzasiga yengilgina urib chiqishi kerak. Urishlar aylana bo'ylab bir-biridan keyin ketma-ket bajarilishi shart. Agar kimdir urishlar ketma-ketligini buzsa yoki sur'atni keskin sekinlashtirsa, bir qo'lini olib qo'yadi. O'yin oxirida eng e'tiborli bir nechta ishtirokchi qoladi.

Trener mashqni qiyinlashtirishi mumkin: avvaliga "urish to'lqini"ni soat millari bo'yicha, keyin esa biroz vaqtdan so'ng soat millariga qarshi yo'nalishda boshlaydi.

Bu mashqning yana bir varianti ham bor. Ishtirokchilar navbatma-navbat qandaydir bir jumlani "terishadi": har bir urish bilan birga navbatdagi harfni aytishadi. Bunda tinish belgilari va bo'sh joylar ham hisobga olinadi.

"Tipografiya"

Bu mashq avvaldagiga o'xshash, biroq murakkabroq bo'lib, ishtirokchilardan kattaroq diqqat va jamlanishni talab qiladi. Guruh charchagan yoki mavzu bo'yicha axborot bilan ortiqcha yuklangan paytda o'tkazish maqsadga muvofiq emas. En yaxshi vaqti — tushlikdan keyingi tanaffusdan so'ng. Yetakchi shuni ham yodda tutishi kerakki, ushbu qizdiruvchida kechikkanlar darhol qo'shila olmaydi; shu bois barcha to'planishini kutgan ma'qul yoki kech kelganlardan boshqalarga xalal bermay, tinch kuzatib turish so'raladi.

Mashq boshida ishtirokchilar aylana bo'ylab alifbo tartibida harflarni aytadilar; har biri o'z aytgan harf(lar)ini yodda saqlab qolishi kerak. Keyin trener biror qiyin bo'lmagan jumlani aytadi (masalan, qo'shiq satri yoki she'r satrlari). Ishtirokchilarning vazifasi — ushbu matnni “terish”. Bunda har kim **faqat o'ziga tegishli harf(lar)ni** aytganda o'rnidan turadi. Matnda nuqta kelsa — hamma qarsoq chaladi; vergulda — oyoq bilan yerga uradi; bo'shliqni ifoda etish uchun barcha ishtirokchi o'rnidan turadi; so'roq belgi — hamma qo'llarni ikki tomonga yozadi; hayrat belgi — hamma o'rnidan turib, joyida sakraydi.

Avval sodda matnlardan boshlagan ma'qul. Agar guruh yaxshi uddalasa, butun qo'shiq yoki she'rni ham bersa bo'ladi. Variant sifatida trener matnlar nusxasini tarqatishi mumkin. Mashq sur'ati yetarlicha tez bo'lishi kerak; shuning uchun xatolarda uzoq to'xtalmasdan, oldinga harakatlanish muhim.

“Superbuyum”

Bu qizdiruvchida nafaqat original fikrlash, balki jamoada ishlash qobiliyati ham muhim.

Ishtirokchilar 3–4 nafardan jamoalarga bo'linadi. Komandalar biror buyum (masalan, ruchka, skrepka, piyola va h.k.) uchun **imkon qadar ko'proq qo'llanish usullarini** bir necha daqiqa ichida o'ylab topib, yozib qo'yishlari kerak. Vaqt tugagach, jamoalar o'z variantlarini o'qib eshittiradilar va takrorlangan qo'llanish usullari o'chirib qo'yiladi. Eng ko'p **original** javob bergan jamoa g'olib bo'ladi.

“Ikki lager”

Bu mashq ishtirokchilardan kuzatuvchanlik va diqqat talab qiladi. Uni tushlikdan keyin ishga moslashish qiyin bo'lgan paytda ham, bir topshiriq blokidan boshqasiga o'tishda ham qo'llash mumkin.

